FALSAFA

UDK: 1:165.2:159.9:159.923:001.8 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss6/a37**

ONG MUAMMOSINING ILMIY – FALSAFIY VA PSIXOLOGIK TALQINI

НАУЧНО-ФИЛОСОФСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ СОЗНАНИЯ

SCIENTIFIC, PHILOSOPHICAL AND PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF THE PROBLEM OF CONSCIOUSNESS

Karimov Bozarkul Xudayberdiyevich[1]
[1]Buxoro muxandislik – texnologiya instituti, ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada ongning kelib chiqishi, uning mohiyatini ochib berishda I.P.Pavlov, I.M.Sechenevlarning reflekslar, va Zigmund freydning psixoanaliz ta'limotlaridan o'rinli foydalanilgan. Shu bilan birga ongdan g'ayrimadaning shaklda foydalanishlarning zararli tomonlari ko'rsatilgan.

Аннотация

В статье по проблеме происхождения и суўности сознания и научном обосновании данного феномена отмеается заслуги вкдаюўихся ученх И.П.Павлоа, И.М.Сеченова и Зигмунда Фрейда, его учения психоанализа, а также современные научно-философские и психологические концепции сознания.

Abstract

The merits of the outstanding sciences I.P.Pavlov, I.M.Sechenov and Zigmund Freud, their teachings in the psychoanalysis and modern scientific philosophical and psychological conceptions of consciousness are noticed in the article on the problems of genesis u essence of consciousness and scientific justification of this phenaomenon.

Kalit so'zlar: *ong, in'ikos, shartli va shartsiz reflekslar, miya, til va tafakkur, ongdan g'ayri madaniy sohada foydalanishlar.*

Ключевые слова: *сознание, отражения, условные и безусловные рефлексы, мозг человека, язык и мышление, использование (манипуляция) сознанием в античеловеческих или противоправных целях.*

Key words: *consciousness, reflection, conditional and non-conditional reflections, a man's brain, language and thinking, the using (manipulation) of consciousness in anti-humanistic or countervailing purposes.*

KIRISH

Insoniyat bugun yo ertaga o'ziga-o'zi albatta yashashdan maqsad nima degan savolni beradi. Bu oddiy savol bo'lmasdan, balki unga javob topish uchun o'tmishga nazar tashlamog'i kerak bo'ladi. Insoniyat umri qisqa emas, u Yerning yoshi bilan o'lchanadi. Tabiatda tafakkur paydo bo'lmog'i uchun Yer va Quyosh 4,5 milliard yil sarfladi. Bu oz vaqt emas. Biz bilan siz uzoq muddatdagi tabiat jarayonining mahsulimiz.

Shu narsa ayonki, ongimiz yashash uchun kurashda g'olib chiqish uchun qurol tariqasida paydo bo'lgan. Ana shu narsa favqulotda o'zining yana boshqa bir xossasini namoyon etdi. Bu – materiyaning, borliqning o'z-o'zini his qila olishidir, tabiatning o'zini-o'zi seza olishidir. Bu chindan ham mo'jiza, fenomen – noyob uchraydigan hodisa. Hayotda turli-tuman, katta-kichik mo'jizalarni uchratish mumkin.

Darhaqiqat, biz ongimiz mazmun-mohiyatini bilamizmi? Ongu tafakkurimiz imkoniyatlaridan qay darajada foydalanayapmiz? Ong va ongsizlikning hayratlanarli, sirli jihatlari qanday?

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, ob'ektiv voqelikning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotida ong va tafakkurning roli beqiyos. Jumladan, birinchi Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "...insonga xos orzu – intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy omilni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi", deb bejizga aytmagan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ongga ta'rif berganda yoki uning mohiyatiga tushunish uchun ontologik, gnoseologik va ijtimoiy jihatlarni nazardan qochirmaslik kerak.

Sobiq Ittifoq davridagi falsafada tafakkurning borliqqa bo‘lgan munosabatida ko‘pincha moddiylikning ustunligi tamoyilidan kelib chiqilar edi. Bugungi kunga kelib, inson borlig‘ining ma’naviy-ruhiy jihatlariga e’tibor kuchayayotgani ko‘zga ko‘proq tashlanmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab inson va uning hayoti oliy qadriyat sifatida yuksalib bormoqda. Xususan, inson ma’naviy-ruhiy dunyosining turli qirralarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Bu masalalarning o‘zagi – inson ongi va ruhiyati mavzulariga borib taqaladi.

Bu masalalarni ilmiy asosda, o‘z davrida, ongning fiziologik asoslarini I.P.Pavlov va I.M.Sechenovlar o‘z ta’limotlarida to‘g‘ri asoslab berdilar. I.P.Pavlovning donoligiga qoyil qolish kerakki, ong va ruhiyat masalalarida xulq-atvor uyg‘unligi faqat shartli va shartsiz reflekslargagina taqab qo‘ymaslik kerak, degan edi. Darhaqiqat, ko‘p o‘tmay Zigmund Freyd tomonidan ong va ongsizlik munosabatlari tajribalar asosida asoslab berdi.

“Barchamizning qonimizda yashirin va anglanmagan ibtidoiy instinktlar yashaydi, hech qanday madaniyat ushbu instinktlarning nogahon namoyon bo‘lishidan kishini muhofaza qilolmaydi; ongsizlik tubida ko‘chmanchi, ahloqiy tushunchalardan uzoq, ibtidoiy davrlarga xos instinktlar mavj uradi. Biz ongli say – harakatlarimiz bilan ushbu instinktlardan qutilishga harakat qilmaylik, ularda hech qachon to‘la xalos bo‘lolmaymiz, juda nari borsa, biz ularni ma’naviy va ahloqiy qadriyatlar yaratish tomonga yo‘naltirishimiz mumkin, xolos”. – degan edi Z. Freyd.

Ongning vujudga kelishida va rivojlanishida inson miyasi asosiy rol o‘ynaydi. Miya – odam va hayvonlar nerv sistemasining markaziy bo‘limi, miya organizmining eng murakkab hayotiy funksiyalari va muhit o‘zaro munosabatlarining boshqarilishini ta’minlaydi. Inson miyasining vazni 1000 – 1400 gramni tashkil etib, 14 – 15 milliard nerv hujayralaridan iborat bo‘lib, undagi asab tolalarini modellashtirish imkoni bo‘lsa edi, unda Moskva davlat universitetining binosiga teng bo‘lgan kibernetik qurilma yasash mumkin bo‘lardi.

Har bir davrning yetakchi g‘oyalari, omma e’tiborida turadigan vokealiklari bo‘ladi. Faqat haqiqiy fangina yuksak tafakkurga tayangan mulohazalarni ilgari surishi lozim. O‘z hayotini ilm – fanga bag‘ishlaganlardan biri Anglyada tug‘ilgan, bugungi kunda AQSh yashayotgan Rojer Penrauz bo‘lib, u Insoniyat tarixida ilk marta juda katta hajmdagi hisoblash mashinasiga ehtiyoj tug‘ilganini aytdi. Nihoyat, yangi asr boshlariga kelib, bir vaqtlar olimlar orzu qilgan darajadagi sun’iy intellektning ilk avlodi - o‘ta tezkor, ko‘p funksiyali ishlanmalar yaratildi. Ammo...

Birinchidan, yaratilgan sun’iy intellekt xuddi insonning kosmosga qadam qo‘ygani kabi ishning boshlanishi, dastlabki qadam bo‘lib chiqdi. Olimlar hayratga tushgancha ta’kidlashdiki, ong va tafakkur maydoni borliqning o‘ziday hadsiz-hududsiz ekan. Ammo bu sehrli va hadsiz olamni empirik shaklda o‘rganishga kelganda fan ojiz...

Taqdirni qarangki, hadsiz koinotni o‘rganish, olamshumul nazariya yaratish istagi mikroolam mantig‘ini tadqiq etish ehtiyojini anglash darajasigagina ko‘tarildi, xolos. Holbuki, ko‘hna Sharqda bizning valiy bobolarimiz "olami kubro" va "olami sig‘ro" haqida juda chuqur fikrlar bildirgan, qomusiy fanlar chorrahasida turib fikrlash bobida allaqachon bu marraga yetib kelgan edi. Lekin zamon boshqa, makon boshqa edi. "Fan - kelajakka xizmat qiladi, lekin bugunning savoliga javob beradi", degan gap bor. Shu ma’noda, Penrouz va uning maslakdoshi Hoking haqiqatni anglash yulida ruhiyat saboqlariga emas, empirik bilimlar tayandi. Ularning bugun sizu bizga katta yangilik o‘laroq aytayotgan gaplari Forobiyning, Beruniyning ong va birlamchi materiya haqida allaqachon aytib o‘tgan fikrlariga mos keladi. Shoshilmaylik, bu orada yana boshqa gaplar bor.

Rojer Penrouzning "Voqelikka yo‘l yoki Koinotni boshqaruvchi qonuniyatlar" kitobida qayd qilinishicha, anglash jarayonining o‘zi materialistik tabiatga ega, miya qobig‘i ostida ong tashuvchilari mavjud. Uning fikricha, bu neyronlar ichida joylashgan oqsilli naychalardir (microtubules). Ularga shu vaqtgacha hujayra ichi kanallaridagi transport vazifasini bajaruvchi, deb qaralar edi. Yangi nazariyaga binoan, axborotni neyronlar emas, naychalar yig‘adi va ularni qayta ishlaydi. Albatta, bularning bari nazariy gap, amalda isbotlash qiyin. Chunki o‘rtada boshqa omil bor, materiyaning ruhiyatga bo‘ysunishi, idrok izmiga o‘tishi aql bilan tushuntirib, izohlab bo‘lmaydigan jarayon. Hozirgi zamon olimlari, jumladan Penrouz ham, shu jarayonda harakatni keltirib chiqaruvchi, ong va materiya o‘rtasida "vositachi"lik qiluvchi a’zoni o‘rganishmoqda. Shartli ravishda "mikronaychalar" deb atalayotgan bu mitti a’zoni tadqiq etish ham, qanchalar g‘alati tuyulmasin, e-endi, endigina boshlandi. Boshlanishdanoq fan yana murakkabliklarga to‘qnash kela boshladi. Borliqni, koinot hodisalarini xilma-xil nazariyalar qamrovida o‘rganish qancha ko‘p hisob-

kitobni taqozo qilsa, "ong tashuvchi"larni o‘rganish, ularni harakatga keltirayotgan omilni aniqlash ham shu qadar e’tibor talab qilar ekan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shunday qilib, voqealar zanjiri taxminan bunday tus oladi: olimlar miyada paydo bo‘ladigan fikrning materiyaga (inson ongiga) ta’sir o‘tkazish yo‘lidagi birinchi vositachini topishdi va uni neyronlar deb atashdi. Oradan muayyan vaqt o‘tib, nanotexnologiyalar yordamida neyronlar ham so‘nggi nuqta emasligi, orada "ong tashuvchi" deb nomlanadigan naycha borligi ayon bo‘ldi. Qiziq jihati shuki, naychaning mohiyati to‘la aniqlanmagan, olimlarning aytishiga qaraganda, ulardan keyin ham boshqa bog‘lovchilar, jismga aql istagini yetkazuvchilar topilishi mumkin. Gap bu o‘rinda qaysi a’zo nima vazifani bajarishida emas, aynan qanday algoritm asosida voqelikning sodir bo‘lishidadir. Olimlar mana shu jarayonning algoritmini aniqlashga harakat qilishmoqda.

Rojer Penrouz o‘zi boshlab bergan yo‘lning oqibatini tasavvur va tafakkur elagidan o‘tkazib, qiziq va antiqa fikrlarni ilgari surayapti. Turli davralarda, kitoblar va maqolalarda aytilgan bu fikrlar xuddi bir zamonlar Eynshteynning "Bu olamda hamma narsa nisbiy, faqat ayollar emas" degani kabi va yoki Galileyning "yerning tayanch nuqtasini topib bersangiz, uniyam joyidan qo‘zg‘ata olaman" deya aytgani singari mashhur iboralarga aylanib ulgurdi. Odamlar turli munosabat bilan bu gaplarni qaytarib-aytib yurishadi. Penrouzning asarlaridan bunday qiziq gaplarni va hikmatlarni saralab ajratib olish qiyin, aslida. Chunki murakkab nazariyalar, goh koinot, goh ongosti voqeliklari haqida bog‘lamalarni anglash uchun qomusiy saviya kerak bo‘ladi. Rojer Penrouzning bir kitobi naq 10 kilo chiqishi bejiz emas.

Uning fikrlarini o‘qir ekansiz, bular olimning maqtanchoqligi va yoki xudbinligi mahsuli deb emas, kelajakni ko‘ra olishi tufayli aytilgan so‘zlar ekanini nazarda tutishimiz lozim bo‘ladi - "Men cheksizlikni ta’qib qilayapman", "Men Buyuk portlashni cho‘zmoqdaman", "Kvantli mexanika - mutlaqo aqlsizlik, ammo u mavjud, shuning uchun ham koinot esini yo‘qotgan", "Bilim - materiya yoki yashirin massa kabi to‘la anglanmagan, sirli olamdir..." va boshqalar.

Fanning turli sohalari bilan shug‘ullanuvchi Penrouz ong muammosiga e’tibor qaratishi tabiiy edi. Bunga uni ko‘proq kosmologik izlanishlari undagan, desak xato bo‘lmaydi. Ong haqidagi bahs-munozara va tadqiqotlarda chalkashliklar mavjud bo‘lgan hozirgi paytda, Penrouz fikricha, bu fikrlarni tartibga solish kerak. Ba’zilar insonni kompyuter bilan solishtirib, ongdan mukammal dasturlarni kutsa, boshqalar biologik asoslarga e’tibor qaratadi, yana boshqa bir guruh emotsiya, go‘zallik hissi, ijod, ilhom, san’at hech qanday modellashtirishga bo‘ysunmaydigan hodisalar deydi. Bu tartibsizlikka aniqlik kiritib, Penrouz: "Biz fikrlar olamini fizik asosda ko‘rib chiqishimiz shart", deydi. Ong global ahamiyatga ega va ong uchun mas’ul har qanday fizikaviy jarayon umumlashgan xarakterga ega bo‘lishi tabiiy. Bunday talabga mikrodunyo ko‘proq javob beradi.

Ong aniq bir ta’rifga tushmasligini bilgan Penrouz, biroq uning namoyon bo‘lish shakllarini, fandan, avvalo, voqelik haqidagi bazaviy fan - kvantli fizikadan uzoqlashmagan holda ta’riflash mumkin. Adabiyotlarda turli variantdagi tadqiqotlarning sub’ektiv jihatlarini ekspluatatsiya qiluvchi kvantli yondashuvlar mavjud. Ularda aytilishicha: "Haqiqatda hech qanday real olam mavjud emas, faqat biz - kuzatuvchilar bormiz". Penrouzning fikriga ko‘ra esa "...har qanday nuqtai nazar muayyan darajada realdir".

Penrouz ong muammosiga matematika tabiati va uning fundamental fizikaviy jarayonlarni ta’riflay olish xossasi haqidagi mulohazalari asosida kelgan. Matematizm uning dunyoqarashida jiddiy iz qoldirgan: "to‘g‘ri tanlangan matematik bo‘limlar fizik jarayonlarni aniq ta’riflashga imkon beradi... Butun fizik olam matematika qonunlariga mos harakat qiladi... Umuman olganda, fizik olam matematik yo‘l bilan ta’riflanishi mumkin".

Tafakkur jarayonini modellashtirish muammosini yoritish uchun Penrouz juda keng doiradagi hodisalarni va ilmiy bilimlarni qamrab olgan: matematikaviy tafakkurni algoritmlash, Tyuring modellovchi mashinalari, murakkablik nazariyasi, Gyodel teoremasi, materiyani teleportatsiya qilish masalasi, kvantlar fizikasining paradokslari, entropiya hodisalari, olamning (kosmosning, koinotning) vujudga kelishi (shakllanishi) masalasi, qora tuynuklar, inson miyasining tuzilishi va boshqalar shular jumlasidandir. Shuning uchun uning kitoblari gumanitar va tabiiy fanlar mutaxassislarining ham, keng kitobxon ommasining ham katta qiziqishini uyg‘otdi. Mazkur muammo bo‘yicha Penrouz "men ong hodisasini hozirgi davr nazariy fizikasi doirasida tafsirlab bo‘lmaydi, deb hisoblayman" degan xulosani chiqarib, sun’iy intellekt yaratish mumkin emasligi va kerak emasligi haqidagi fikrni oldinga suradi.

Sun’iy intellekt yaratib bo‘lmasligi, uning tushuntirishicha, "intellektuallik"ni modellash uchun muhim bo‘lgan "tushunish" jarayoni bo‘lishini taqozo etadi. Vaholanki, tushunish jarayonini modellash, ya’ni hisoblash mumkin emas. Chunki tushunish ong, anglash kabi fan bilmaydigan sirli jarayon bilan bog‘liqdir. Shunday qilib sir sirligicha qoldi...

Umumbashariy muammolar va boshqa shunga o‘xshash murakkab masalalar haqida olim boshqalardan farqli ravishda o‘zining ekstremal qarashlarini ilgari suradi. Bu qarashlarga aksariyat olimlar ijobiy baho beradilar. Aynan shunday qarashlarda falsafiy tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi falsafa fan bilan birlashgandagina haqiqiy ma’no-mazmun kasb etishi mumkin. O‘z navbatida fan ham falsafa bilan birlashganda yanada samarali natijalar beradi.

Uzoq yillar davomida olimlar olam tabiati va ong tabiati o‘zaro bog‘liq bo‘lsada, mohiyatan ular har xil va turli sohalar o‘rganadigan ob’ektdir, deb hisoblashgan. Birinchisi fizika sohasiga, ikkinchisi falsafa va psixologiyaga taalluqli deyilgan. Biroq oxirgi o‘n yillikda qarashlar o‘zgardi. Zamonaviy fanda yuqoridagi ikki masala yaxlit bazisga ega bo‘lgan nazariya, ya’ni fizika tomonidan o‘rganilishi lozim, degan fikrlar ko‘plab uchramoqda. Ba’zi olimlar esa bahsni "lokal" ongdan, ya’ni individual ongdan "global" ongga o‘zgartirish kerak, deyishadi. Bunda ong mavjud bo‘lgan olam realligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat 1970-yildan - ong tushunchasida yangi "ishtirokchi" paydo bo‘lganidan boshlanadi. Turlicha talqinlarda u turlicha nomlanadi "kvantli yondashuv", "kvantli fizikalizm", "fizitsizm" va boshqalar.

Oldingi vaqtda fan kuchsizligi tufayli ong muammosi faylasuflar qo‘liga o‘tib qolgan, bugun u bilan fiziklar shug‘ullanadigan vaqt keldi, deyuvchilar ham topi-ladi. Biroq "kvantchi"larning ong hodisasini o‘rganishga bel bog‘lagani mazkur fenomenning tushunish qiyin bo‘lib turgan jihatlarini yanada murakkablashtirib yubordi. Penrouzning qayd etishicha, ongni tadqiq etish materiyani tadqiq etishdan ayro hodisa emas. Har ikkisining siri, "kalit"i bitta bo‘lishi kerak.

Yurtimizda o‘zlarining g‘ayriislomiy g‘oyalarini tarqatishga harakat qilgan kimsalar g‘arazli niyatlarini, ya’ni yoshlarni chalg‘itish, ular yordamida mamlakatni o‘z taraqqiyot yo‘lidan chetlatib yuborish maqsadida inson ongi va qalbini egallashda fikriy kurash yo‘lini tanlab, 1989-yildan buyon “al-Va’y”, ya’ni “Ong” nomli oylik jurnalni turli tillarda chiqarib kelayotganliklari ham bejiz emas.

Sharqona tafakkur namunasi bo‘lgan “Inson ongi va qalbi uchun kurash” masalasi bugungi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Inson ongi orqali uning qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi va turli g‘oyalarni sinash maydoniga – mafkuraviy poligonga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham ong masalasini har tomonlama o‘rganish, unga yoshlar e’tiborini qaratish bugungi ta’lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

Qadimgi zamonlardayoq ong, tafakkur, ruh haqidagi qarashlar mashhur faylasuflar Suqrot, Aristotel, Platon qarashlarida shakllana boshlagan. Demak, birlamchi psixologik qarashlar falsafa negizida paydo bo‘lgan edi. Allomalar ular asarlaridan ta’sirlanib, insonning ruhiyatiga ham e’tibor qaratganlar. Shuning uchun ham psixologiyani haqli ravishda falsafa negizida vujudga kelgan fanlar qatoriga qo‘shish mumkin. Falsafa va psixologiyaning bir-birini to‘ldirishini ong va ruhiyat masalasini har tomonlama yoritishda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shu bilan birga, yana bir e’tiborli jihati shuki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlab topishda falsafa va psixologiyaning o‘zaro hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu esa yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi dolzarb bo‘lib turgan tarixiy davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ongni boshqarish orqali odamni har qanday xatti-harakatga undash mumkin. Psixolog va sotsiolog olimlarning ta’kidlashicha, *manipulyatsiya* - psixologik ta’sir turlaridan biri hisoblanib, undan kishini ma’lum xatti-xarakatlarni amalga oshirishga bilvosita undash orqali bir tomonlama yutuqka erishish maqsadida foydalaniladi. Manipulyatsiya lotinchadan olingan bo‘lib, qo‘l harakati degan ma’noni bildiradi. Shu bilan birga manipulyatsiya - qo‘l mashqi, shu jumladan, qo‘l mahoratiga tayangan fokus namoyish qilish; maxinatsiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik orqali g‘arazli maqsadga erishish; odamda ma’lum motivatsion holatlarning (hissiyotlar, stereotiplar) faollashuviga olib keladigan kommunikatsion ta’sir.

Hozirga paytga kelib axborot tizimi butun jahonni qamrab oldi. Internet, uyali telefon aloqasi, radio va televidenie umumjahon miqyosida keng tarqaldi. Xalqlar, mintaqalar, qit’alararo aloqalar jadallashdi. Insoniyatning muvaffaqiyatlari ham, kulfatlari ham global xarakter kasb etdi.

XULOSA

XX asr ijtimoiy ongni boshqarish borasida burilish asri bo‘ldi. Millionlab kishilarni bir vaqtning o‘zida jadal targibot bilan qamrab olish imkonini beradigan yangi texnologik vositalar paydo bo‘ldi. Ilgari tasavvur etib bo‘lmaydigan ko‘lamlarda siyosiy tomoshalar qo‘yishga qodir rejissyor - tashkilotlar bo‘y ko‘rsatdi.

Ba’zan beozordek ko‘ringan reklama ham madaniy o‘zakni qo‘porishning kuchli vositasiga aylanayotganini e’tiborga oladigan bo‘lsak, «g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish zarurligi» haqidagi fikrning ahamiyatini yanada chuqurroq anglaymiz. Shunday ekan, o‘zligimizdan mahrum qilishga intilishlarning payini qirqishimiz, ongimizni boshqarishga urinishlarga yo‘l bermasligimiz kerak.

Bashariyat taraqqiyoti tufayli inson ongini boshqarish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari cheksiz kengaydi. Bunday texnologiyalarni samarali qo‘llash bo‘yicha qimmatli «maslahatlar» bitilgan nazariyalar ham ko‘paydi. Mazkur nazariyalarga xos umumiy xususiyat shundan iboratki, uning mualliflari ongni boshqarish uchun, avvalo, insonlarni to‘daga, olomonga aylantirish zarurligini, shundan keyin ularni istalgan kuyga solish mumkinligini ilmiy «asoslab» berishga harakat qiladi.

Fransuz faylasufi Gi Deborning «Tomosha jamiyati» (1967 y.) asarida insonlarni to‘daga aylantirish maqsadida o‘y-xayoldan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Uning fikricha, ongni boshqarish texnologiyalari shunday qudratga egaki, ular yordamida real hayot, tarixiy tajriba asosida to‘plangan bilim yo‘qqa chiqarilib, uni rejissyorlar tomonidan sun’iy shakllantirilgan bilimga almashtirib qo‘yish mumkin. Shu yo‘l bilan insonda «hayotning o‘zi bir tomosha» degan fikr paydo qilinadi. Uningcha, «tomosha jamiyati»ni shakllantirish uchun madaniyatni tubdan o‘zgartirish, hayot bilan tomosha o‘rtasidagi chegarani ongli ravishda yo‘qotish, tomoshaga xos xususiyatlarni hayotga joriy etish zarur.

Shunda odamlar «maroqli spektakl»dagi qiziqarli o‘zgarishlarni nafasini ichiga yutib kuzatayotgan tomoshabinga aylanib qoladi. Rejissyor esa sahna ortidan turib, ommaviy tomoshani kishi bilmas tizginlar vositasida boshqarib turadi. Natijada odamlar real voqelikni idrok etish hissini yo‘qotib, haqiqiy hayot qayerdayu, o‘yin qayerda boshlanayotganini tushunolmay, garang bo‘lib qoladi. Haqiqiy hayot bilan uning sun’iy in’ikosini bir-biridan ajrata olmay qolgan inson ongi falajlanadi. Eng yomoni, tomosha jamiyatida insonga barcha narsani o‘ylamay-netmay qabul qilaveradigan passiv tomoshabin roli «ravo ko‘riladi».

Shunday qilib, ularning maqsad-muddaolari shunda ayon bo‘ladiki, insonlarning ongu tafakkurini chalg‘itish yo‘li bilan ularni ma’no-mazmunsiz hayotga yo‘naltirishga harakat qiladilar. Shu bilan birga ular odamlarning inon-ixtiyorlarini o‘ziga bo‘ysundirish oqibatida – o‘zlari xohlagan g‘oya-mafkurasini singdirishga urinadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizxo‘jaev A. Chin o‘zbek ishi. “O’zbekiston” NMIU, 2011.
2. “Naqshbandiya” jurnali. №2 (7) 2011.
3. Kara-Murza S. Manipulyatsiya soznaniem. M., “Algoritm”. 2006.
4. Mastonov K.H., Karimov B.X. Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlariga qarshi kurash masalalari. “Fan va texnologiyalar” nashriyoti. Toshkent, 2008. 25-bet.
5. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.
6. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(10), 1160-1164.
7. Kara-Murza S. Manipulyatsiya soznaniem. - M.: «Algoritm», 2006, s. 15.
8. Rojer Penrauz “Voqelikka yo‘l yoki Koinotni boshqaruvchi qonuniyatlar” Moskva-Ejevsk 2007